КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	1326
Нуриллоева Заррина Зокиржоновна	
SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1331
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi	
SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK JIHATLARI	1334
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDOCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISK LARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмудуллоева Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyevena	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1406
Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI)	1411
Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
KORXONALARDA ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) HISOBOTLARINING AUDITINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEKANIZMLARI.....	1417
Xolikov Ravshan Anvar o'g'li	



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1420
Omonov Olim Murodullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1424
Sharifi Abdul Fatah	
TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR	1430
Sadikov Q.M.	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	1434
Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	
O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1456
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПЕРСОНАЛОМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ ТАЛАНТАМИ И МОТИВАЦИЯ	1462
Абилов Эльман Худаверди оглы	
O'ZBEKISTON BANKLARINING AML TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT: STRATEGIK ZARURAT VA JORIY ETISH YO'LLARI	1468
Rashidov Avazbek Raximovich	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI STATISTIK TAHLILI	1475
Abduraxmanov Abduazim Djalaliddinovich	
BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1483
Bo'tayev O'tkir Eshboevich	
TIJORAT BANKLARINI DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQRARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI CHUQURLASHTIRISH YO'LLARI	1489
Salamov Islom Tashkazakovich	
FRANCHAYZING ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORDA ILGARI SURISHDA MERCHANDAYZING DIZAYNI VA VIZUAL MARKETING YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1495
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISHLAB CHIQRADIGAN SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH	1501
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	



ISHLAB CHIQUARADIGAN SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH

Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich

Andijon davlat texnika instituti, "Iqtisodiyot" kafedrası doktoranti (DSc)

e-mail: mallaboyevanvarjon@gmail.com,

Annotatsiya. Maqolada ishlab chiqaradigan sanoatning raqobatbardoshligini baholash masalalari hamda uning metodologik jihatlari yoritilgan. O'zbekiston va asosiy hamkor davlatlarning ishlab chiqaradigan sanoat raqobatbardoshligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan ishlab chiqilgan Raqobatbardosh sanoat samaradorligi (Competitive Industrial Performance – CIP) indeksi asosida tahlil qilingan. Milliy sanoat raqobatbardoshligi ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlari, texnologik rivojlanish intensivligi hamda mamlakatning jahon ishlab chiqaradigan sanoatidagi o'rnini va ta'siri kabi ko'rsatkichlar tizimi asosida baholangan. Tadqiqot natijalari asosida sanoat raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro raqobatbardoshlik, transformatsiya, globallashuv, ishlab chiqaradigan sanoat, Raqobatbardosh sanoat samaradorligi (CIP) indeksi, sanoat eksporti, texnologik rivojlanish, innovatsiyalar.

Abstract. The article examines issues related to assessing the competitiveness of the manufacturing industry and its methodological aspects. The competitiveness of Uzbekistan's manufacturing sector and that of its main partner countries is analyzed using the Competitive Industrial Performance (CIP) Index developed by the United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). The competitiveness of the national industry is evaluated based on a system of indicators, including industrial production and export volumes, the intensity of technological development, and the country's position and impact in global manufacturing. Based on the findings, scientifically grounded proposals and recommendations aimed at enhancing industrial competitiveness are developed.

Key words: international competitiveness, transformation, globalization, manufacturing industry, Competitive Industrial Performance (CIP) Index, industrial exports, technological development, innovation.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы оценки конкурентоспособности обрабатывающей промышленности и её методологические аспекты. Конкурентоспособность обрабатывающей промышленности Узбекистана и основных стран-партнёров проанализирована с использованием Индекса конкурентоспособности промышленного производства (Competitive Industrial Performance — CIP), разработанного Организацией Объединённых Наций по промышленному развитию (ЮНИДО). Конкурентоспособность национальной промышленности оценена на основе системы показателей, включающей объёмы промышленного производства и экспорта, интенсивность технологического развития, а также позицию и влияние страны в мировой обрабатывающей промышленности. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на повышение конкурентоспособности отрасли.

Ключевые слова: международная конкурентоспособность, трансформация, глобализация, обрабатывающая промышленность, индекс конкурентоспособности промышленности (CIP), промышленный экспорт, технологическое развитие, инновации.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jadal transformatsiya jarayonlari sharoitida mamlakatlarning xalqaro bozorlarda barqaror va mustahkam pozitsiyalarni egallashga qaratilgan sa'y-harakatlari o'zaro raqobatni yanada kuchaytirmoqda. Mazkur jarayon doirasida tashqi bozorlarga kirib borayotgan davlatlar yuqori darajadagi raqobat muhitida faoliyat yuritishga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, globallashuvning chuqurlashuvi, tovar va xizmatlar hamda kapital harakatining liberallashuvi, texnologik taraqqiyot sur'atlarining tezlashuvi ko'plab mamlakatlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida keng ko'lamli transformatsiya jarayonlari amalga oshirildi. Jumladan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi takomillashtirildi, jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiya yangi bosqichga ko'tarildi, ijtimoiy himoya tizimi kengaytirildi hamda huquqiy institutlar mustahkamlandi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi



mavqei tobora mustahkamlanib bormoqda. Yaqin istiqbolda aholi jon boshiga daromadi o'rtadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish strategik maqsad sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, jahon miqyosida raqobat kuchayib borayotgan sharoitda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. 2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini sezilarli darajada oshirish uchun iqtisodiyotning texnologik va innovatsion rivojlanish modeliga o'tishi muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi aholi farovonligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Xalqaro raqobatbardoshlikni tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri Raqobatbardosh sanoat samaradorligi (Competitive Industrial Performance – CIP) indeksidir. Milliy sanoat raqobatbardoshligini xalqaro indekslar asosida baholash hamda asosiy hamkor davlatlar bilan taqqoslash mamlakatimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash, sanoat siyosatini takomillashtirish va strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bois ishlab chiqaradigan sanoatning raqobatbardoshligini har tomonlama va chuqur tahlil qilish, uning xalqaro reytinglardagi o'rnini aniqlash hamda uni oshirish yo'nalishlarini asoslab berish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqaradigan sanoat raqobatbardoshligi va uni baholash masalalari ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi (Competitive Industrial Performance — CIP) milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkich sifatida jahon mamlakatlari o'rtasida qiyosiy tahlillarni amalga oshirishda hamda raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi tarkibiy omillarni aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarda keng qo'llaniladi.

S. Lall CIP indeksining asosiy mualliflaridan biri hisoblanadi. Uning 2003 yilda chop etilgan tadqiqotlarida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, inson kapitali darajasi, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga (R&D) yo'naltirilgan xarajatlar hamda moddiy infratuzilmaning sanoat samaradorligiga ta'siri 1985–1998 yillar misolida qiyosiy tahlil qilingan [2]. Lall sanoat raqobatbardoshligini ishlab chiqarish hajmi, eksport tarkibi va texnologik intensivlik darajasi bilan bog'liq kompleks omillar orqali baholash zarurligini asoslab bergan.

Z. Zhao va K. H. Zhang tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Xitoy iqtisodiyotining raqobatbardoshlik darajasi CIP indeksi va uning tarkibiy komponentlari kesimida xalqaro miqyosda tahlil qilingan [3]. Jumladan, Xitoy sanoatining raqobatbardoshligi Lall tomonidan ilgari surilgan sanoat samaradorligini belgilovchi omillar asosida baholangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tahlil davri mobaynida Xitoy sanoati raqobatbardoshligining sezilarli o'sishi mamlakatning global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashuvi bilan bevosita bog'liq ekanini aniqlangan. Shu bilan birga, sanoatda transformatsiyani chuqurlashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida innovatsion faoliyatni yanada jadallashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Iqtisodchi olimlar Ch. Deyer, B. Turkjan va N. Kumral Turkiyaning asosiy savdo hamkorlariga nisbatan sanoat raqobatbardoshligini CIP indeksi asosida qiyosiy tahlil qilganlar [4]. Tadqiqotda inson kapitali sifati (ta'lim darajasi), infratuzilma rivoji hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sanoat raqobatbardoshligiga ta'siri o'rganilgan. Mualliflar raqobatbardoshlikni oshirishda texnologik modernizatsiya va institutsional omillarning ahamiyatini alohida ta'kidlaganlar.

Sanoat raqobatbardoshligini baholash masalalari yuzasidan milliy tadqiqotchilar tomonidan ham qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, K. I. Kurpayanidi va A. A. Ilyosovlar sanoat mahsulotlari eksportida hududiy ustunliklarni baholashning metodologik jihatlarini tadqiq etganlar. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining 2017–2018 yillardagi CIP indeksi ko'rsatkichlari tahlil qilinib, sanoat eksportining tarkibiy o'zgarishlari va raqobat ustunliklari aniqlangan [5].

Iqtisodchi olim A. Abdumovminov sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholash usullari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Unda xalqaro tashkilotlar tomonidan sanoat raqobatbardoshligini hisoblash metodologiyasi hamda sanoat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi chuqur o'rganilgan [6].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar CIP indeksi sanoat raqobatbardoshligini baholashda muhim analitik instrument ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning asosiy hamkor davlatlar bilan qiyosiy tahlili, sanoat transformatsiyasi va texnologik rivojlanish intensivligi nuqtai nazaridan kompleks tadqiqotlar olib borish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o'rganish, statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda guruhlash usullaridan samarali foydalanildi. Xalqaro raqobatbardoshlikni baholash bo'yicha yagona umumlashgan yondashuv mavjud



emas. Shu sababli raqobatbardoshlikni baholashda turli xalqaro tashkilotlar va iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan ko'p qirrali indekslar hamda ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur maqolada raqobatbardoshlikni baholashda qiyosiy va statistik tahlil usullari asosiy metodologik yondashuv sifatida tanlandi. Tadqiqotda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan ishlab chiqilgan Raqobatbardosh sanoat samaradorligi (Competitive Industrial Performance — CIP) indeksi va uning subko'rsatkichlari asosida O'zbekiston hamda asosiy hamkor davlatlarning 2014–2023-yillarga oid statistik ma'lumotlari qiyosiy tahlil qilindi.

Maqolada CIP indeksi asosida kompleks statistik tahlil amalga oshiriladi. Bunda quyidagi bosqichlar izchil bajarildi:

- CIP indeksi mezonlari va uning subko'rsatkichlari tizimli ravishda o'rganildi;
- O'zbekistonning tahlil davriga oid CIP indeksi va subindekslari ko'rsatkichlari statistik jihatdan tahlil qilindi;
- O'zbekistonning CIP indeksi bo'yicha natijalari asosiy hamkor davlatlar ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilindi;
- milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi baholanib, uni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tanlangan metodologik yondashuv sanoat raqobatbardoshligini baholashda obyektivlik va qiyosiylik tamoyillarini ta'minlashga, shuningdek, milliy sanoatning xalqaro maydondagi pozitsiyasini aniq baholashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobatbardoshlikni baholash masalasi doimiy ravishda ilmiy muhokamalar markazida bo'lib kelgan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Raqobatbardoshlikning umumiy qabul qilingan yagona ta'rifi mavjud emasligi sababli, ilmiy adabiyotlarda uni baholashda turli mezon va ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Turli xalqaro institutlar va tashkilotlar ko'p qirrali indikatorlar asosida raqobatbardoshlik indekslarini ishlab chiqmoqda hamda ular yordamida mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional rivojlanish darajasi jahon iqtisodiyotidagi o'rni bilan qiyosiy tahlil qilinmoqda. Mazkur indekslar orqali mamlakatning iqtisodiy natijalari, biznes samaradorligi, infratuzilma rivoji, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi, texnologik taraqqiyoti hamda boshqa omillar kompleks baholanadi.

Ushbu omillarning har biri mamlakat umumiy raqobatbardoshligini shakllantiruvchi muhim determinant hisoblanadi. Mazkur omillarni izchil rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Qaysi omillarning ustuvor ekanligi esa mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy shart-sharoitlari hamda strategik maqsadlariga bog'liq. Masalan, agar mamlakat texnologik jihatdan intensiv iqtisodiyotga o'tishni maqsad qilgan bo'lsa, innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati va texnologik infratuzilmaga investitsiyalarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Aksincha, tabiiy resurslarga tayanadigan iqtisodiyotlar resurslardan samarali va barqaror foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga e'tibor qaratadi. Shu bois xalqaro raqobatbardoshlikni aniqlash mamlakatga o'z imkoniyatlarini real baholash, nisbiy ustunliklarini aniqlash va strategik yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.


Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan 2002/2003 yillardan buyon e'lon qilinib kelinayotgan Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi (Competitive Industrial Performance — CIP) ishlab chiqaradigan sanoat raqobatbardoshligini baholashda keng qo'llanilmoqda. CIP indeksi UNIDO tomonidan sanoat raqobatbardoshligini qiyosiy baholashning asosiy vositasi sifatida qabul qilingan. Tashkilot tomonidan muntazam ravishda e'lon qilinadigan "Competitive Industrial Performance" hisobotlarida 140 dan ortiq mamlakat bo'yicha ma'lumotlar taqdim etiladi [7].

Mamlakatlarning ishlab chiqaradigan sanoat samaradorligi yaratilgan qo'shimcha qiymat, ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlari asosida hisoblanadigan indeks orqali baholanadi. CIP indeksi mamlakatlar o'rtasida raqobatbardoshlik darajasini taqqoslash bilan bir qatorda, ma'lum davr mobaynida yuz bergan tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash imkonini ham beradi. Shu bilan birga, mazkur indeks sanoat siyosatini shakllantirish va amalga oshirilgan strategik davlat dasturlarining samaradorligini baholashda muhim analitik instrument hisoblanadi.

Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi uchta asosiy mezonga tayangan holda shakllantiriladi: ishlab chiqarish va eksport natijalari, texnologik rivojlanish intensivligi hamda mamlakatning jahon ishlab chiqaradigan sanoat qo'shimcha qiymati va savdosidagi ulushi. Ushbu uch mezon asosida CIP indeksi sakkizta subko'rsatkichni o'z ichiga oladi. Subko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar UNIDO ma'lumotlar bazasida muntazam ravishda e'lon qilinadi, bu esa mamlakatlar kesimida chuqur qiyosiy tahlil o'tkazish imkonini yaratadi. Natijada, jahon mamlakatlari ishlab chiqaradigan sanoatining tarkibiy tuzilmasi, texnologik salohiyati va eksport imkoniyatlari kompleks baholanadi.



CIP indeksining tarkibiy qismlari 1-rasmda keltirilgan. Indeksning birinchi mezonini ishlab chiqarish hajmi va eksport ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi subindikatorlarni o'z ichiga oladi. Xususan, ishlab chiqaradigan sanoatda aholi jon boshiga yaratilgan qo'shilgan qiymat (Manufacturing Value Added per capita — MVApC) hamda aholi jon boshiga ishlab chiqaradigan sanoat eksporti (Manufactured Exports per capita — MXpc) ko'rsatkichlari asosida mamlakatning qo'shimcha qiymat yaratish salohiyati va tashqi savdo samaradorligi baholanadi (1-rasm).



1-rasm. Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi (CIP) ni baholash mezonlari va subko'rsatkichlari¹

Ikkinchi mezon texnologik rivojlanish intensivligini ifodalaydi. Mazkur guruh to'rtta subko'rsatkichni o'z ichiga oladi hamda ular asosida ikkita umumlashgan subindeks shakllantiriladi. Umumlashgan subindekslarning birinchisi sanoatlashuv intensivligini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich texnologik intensivligi o'rta va yuqori bo'lgan ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning ishlab chiqaradigan sanoat jami qo'shilgan qiymatidagi ulushi (MHVAsh) hamda ishlab chiqaradigan sanoat qo'shilgan qiymatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (MVAsh) ko'rsatkichlari o'rtacha qiymati asosida aniqlanadi.

Sanoat eksporti sifati ifodalovchi ikkinchi umumlashgan subindeks texnologik intensivligi o'rta va yuqori bo'lgan ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari eksportining ishlab chiqaradigan sanoat jami eksportidagi ulushi (MHXsh) hamda ishlab chiqaradigan sanoat eksportining mamlakat jami eksportidagi ulushi (MXsh) ko'rsatkichlari o'rtacha qiymati asosida hisoblanadi.

CIP indeksining uchinchi mezonini mamlakatning jahon ishlab chiqaradigan sanoatiga ta'sirini baholaydi. Ushbu mezon mamlakat ishlab chiqaradigan sanoatida yaratilgan qo'shilgan qiymatning jahon ishlab

¹ Muallif ishlanmasi. Manba: UNIDO (2015). Vienna. Competitive Industrial Performance Report 2014. UNIDO.



chiqaradigan sanoati qo'shilgan qiymatidagi ulushi (LmWMVA) hamda mamlakat ishlab chiqaradigan sanoati eksportining jahon ishlab chiqaradigan sanoati eksportidagi ulushi (LmWMT) ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi. CIP indeksi yuqorida keltirilgan uchta asosiy mezon doirasida aniqlangan oltita subko'rsatkichni baholash va ularni teng nisbatda integratsiyalash orqali hisoblanadi [7].

O'zbekistonning 2014–2023-yillarga oid CIP indeksi va uning subko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish mazkur davrda milliy iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar hamda xalqaro raqobatbardoshlik darajasi haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Jumladan, 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2014–2020-yillar davomida mamlakat CIP indeksi ko'rsatkichlarida ma'lum pasayish kuzatilgan: 2014-yilda 0,01723 punktni tashkil etgan ko'rsatkich 2020-yilda 0,01639 punktga tushgan.

Shu bilan birga, 2020–2021-yillarda global pandemiya sharoitiga qaramasdan, O'zbekiston CIP indeksida keskin pasayish kuzatilmaganligi milliy sanoatning muayyan barqarorlik darajasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, 2021-yildan boshlab CIP indeksi qiymatida ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan: 2021-yilda 0,01761 punktni tashkil etgan ko'rsatkich 2022-yilda 0,01838 punktga, 2023-yilda esa 0,02146 punktga yetgan (1-jadval).

1- jadval. O'zbekiston qaqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi (CIP) va uning subko'rsatkichlari dinamikasi, (2014-2023)²


Ko'rsatkichlar/ yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
CIP indeksi	0.01723	0.01607	0.01664	0.01660	0.01606	0.01643	0.01639	0.01761	0.01838	0.02146
Reyting korsatkichi	98	97	96	95	94	96	94	89	89	83
1.MVApc (USD)	345	359	376	385	401	420	444	472	488	510
2.MXpc (USD)	85	85	85	85	89	98	106	156	188	226
3.MHVAsh	0.19	0.17	0.16	0.19	0.23	0.20	0.18	0.17	0.19	0.19
4.MVAsh	0.12	0.12	0.12	0.12	0.12	0.12	0.13	0.13	0.13	0.13
5.MHXsh	0.36	0.36	0.36	0.36	0.29	0.28	0.26	0.28	0.29	0.30
6.MXsh	0.27	0.27	0.27	0.27	0.27	0.21	0.27	0.38	0.44	0.39
7.LmWMVA	0.00087	0.00089	0.00093	0.00093	0.00095	0.00100	0.00110	0.00109	0.00112	0.00118
8.LmWMT	0.00017	0.00017	0.00017	0.00017	0.00016	0.00019	0.00022	0.00027	0.00031	0.00039

Shu bilan birga, mazkur pasayish asosan 2014–2020-yillar oralig'iga to'g'ri kelgan bo'lib, 2020–2023-yillarda ko'rsatkichda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, 2020-yilda 0,26 punktni tashkil etgan ko'rsatkich 2023-yilda 0,30 punktga qadar oshgan.

Texnologik intensivligi o'rta va yuqori bo'lgan ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning ishlab chiqaradigan sanoat jami qo'shilgan qiymatidagi ulushi (MHVAsh) subko'rsatkichida esa tahlil davri mobaynida muayyan tebranishlar kuzatilgan bo'lsa-da, 2023-yilda uning qiymati 2014-yil darajasiga nisbatan sezilarli o'zgarishsiz qolgan.

CIP indeksining boshqa subko'rsatkichlarida esa tegishli davr mobaynida ijobiy tendensiyalar kuzatilgan. Masalan, ishlab chiqaradigan sanoatda aholi jon boshiga yaratilgan qo'shilgan qiymat (MVApc) 2014-yilda 345 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 510 AQSH dollariga yetgan. Shuningdek, aholi jon boshiga ishlab chiqaradigan sanoat eksporti (MXpc) hajmi 2014-yildagi 85 AQSH dollaridan 2023-yilda 226 AQSH dollariga qadar oshgan (2-rasm).

2 Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: <https://stat.unido.org/data/download?dataset=cip>.



2-rasm. O'zbekiston raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksi (CIP) dinamikasi (2014-2023)³

So'nggi yillarda mamlakatimizning Raqobatbardosh sanoat samaradorligi (CIP) indeksi ko'rsatkichlarida kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlarni, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı liberallashtirish jarayonlari, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning jadallashuvi hamda milliy iqtisodiyotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar natijasi sifatida izohlash mumkin.

Xususan, sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash, innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini texnologik jihatdan yangilash hamda eksport geografiyasini kengaytirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan faol sanoat siyosati CIP indeksi dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu chora-tadbirlar sanoatning texnologik darajasini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini kengaytirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksidagi o'rnini yanada aniqroq baholash maqsadida uni mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega bo'lgan asosiy hamkor davlatlar bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv mavjud holatni nisbiy baholash, ustun va zaif jihatlarni aniqlash hamda kelgusidagi strategik yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

O'zbekiston va yirik hamkor davlatlarning 2014–2023-yillarga oid CIP indeksi hamda xalqaro reyting ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. O'zbekiston va asosiy hamkor davlatlarning CIP indeksi va reyting ko'rsatkichlari dinamikasi (2014-2023)⁴

Yillar	2014 yil		2023 yil	
	CIP indeksi	O'zni	CIP indeksi	O'zni
Germaniya	0.531427	1	0.416432	1
Xitoy	0.399697	4	0.384485	2
Janubiy Koreya	0.409923	3	0.329818	4
AQSH	0.413704	2	0.316471	5
Yaponiya	0.38924	5	0.300836	8

3 Muallif tomonidan ishlangan. Manba: <https://stat.unido.org/data/download?dataset=cip..>

4 Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: <https://stat.unido.org/data/download?dataset=cip..>



Italiya	0.276606	9	0.227928	11
Fransiya	0.273335	11	0.210152	12
Chexiya	0.203664	18	0.187598	15
Angliya	0.250311	13	0.168947	19
Polsha	0.160121	24	0.156684	21
Turkiya	0.134093	29	0.129137	24
BAA	0.083196	41	0.122736	29
Rossiya	0.116763	31	0.094699	33
Hindiston	0.081249	42	0.078772	37
Litva	0.083279	40	0.078193	38
Braziliya	0.100609	37	0.072348	42
Eron	0.0629874	54	0.051953	52
Belorusiya	0.074696	45	0.047351	56
Latviya	0.047071	58	0.044479	61
Qozog'iston	0.044698	62	0.042130	63
Ukraina	0.044997	61	0.022146	80
Pokiston	0.027592	81	0.021881	81
O'zbekiston	0.017239	98	0.021465	83
Armaniston	0.011684	111	0.019344	89
Gruziya	0.015776	101	0.013859	99
Ozərbayjon	0.011027	114	0.011971	103
Moldova	0.010671	115	0.010933	111
Qirg'iziston	0.007182	126	0.008906	115
Tojikiston	0.004672	134	0.007763	121
Afg'oniston	0.001189	149	0.000814	148
Iroq	0.003286	142		150


Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014–2023-yillarda Raqobatbardosh sanoat samaradorligi (CIP) indeksi bo'yicha Germaniya yetakchi davlat sifatida o'z pozitsiyasini saqlab qolgan. Xitoy esa jahon reytingida 2014-yildagi 4-o'rindan 2023-yilda 2-o'ringa ko'tarilgan.

Aksincha, Janubiy Koreya, AQSH, Yaponiya, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi ilg'or sanoatlashgan mamlakatlarda CIP indeksi dinamikasida nisbiy pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Shu bilan birga, Sharqiy Yevropaning Polsha va Chexiya davlatlari hamda Turkiya, BAA va Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda CIP indeksi reyting ko'rsatkichlari yaxshilangan.

Mazkur davlatlar orasida eng jadal o'sish BAAda qayd etilgan. Xususan, CIP indeksi ko'rsatkichi 2014-yilda 0,083196 punktini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda 0,122736 punktga yetgan. Reyting ko'rsatkichlari bo'yicha esa BAA 2014-yildagi 41-o'rindan 2023-yilda 29-o'ringa ko'tarilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlariga e'tibor qaratilganda, CIP indeksi xalqaro reyting ko'rsatkichlari bo'yicha Armaniston, Ozarbayjon, Moldova, Qirg'iziston va Tojikiston o'z pozitsiyalarini yaxshilaganini ko'rish mumkin. Aksincha, Rossiya, Belarus va Qozog'istonning reyting o'rinlarida nisbiy pasayish kuzatilgan.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2014–2023-yillarda jahon sanoat raqobatbardoshligi tizimida yetakchi sanoatlashgan mamlakatlar o'z pozitsiyalarini nisbatan saqlab qolgan bo'lsalar-da, umumiy CIP indeks qiymatlari va reyting dinamikasida ma'lum pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Boshqacha aytganda, tahlil davrida ishlab chiqaradigan sanoat raqobatbardoshligi ko'rsatkichlari dinamikasi jahon miqyosida raqobat ustunliklarining geografik jihatdan diversifikatsiyalashuvi jarayoni yuz berayotganini ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston va yirik hamkor davlatlarning CIP indeksi dinamikasi (2014-2023)⁵

Xususan, tahlil davri mobaynida Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan G'arbiy Yevropa mamlakatlari hamda AQSh va Yaponiya singari ilg'or sanoatlashgan davlatlarning an'anaviy yetakchi mavqelarida nisbiy pasayish kuzatilgan. Aksincha, sanoat raqobatbardoshligi bo'yicha Osiyo davlatlari, Sharqiy Yevropa mamlakatlari va boshqa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning pozitsiyalari tobora mustahkamlanib bormoqda.

Mazkur tendensiya bir qator omillar bilan izohlanadi. Jumladan, so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarda tarkibiy transformatsiya jarayonlari doirasida iqtisodiyot tarmoqlari kesimida yuqori qo'shilgan qiymatli xizmatlar sohasi ulushining ortishi, sanoat ishlab chiqarish xarajatlarning oshishi hamda ayrim ishlab chiqarish quvvatlarining rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirilishi sanoat raqobatbardoshligi dinamikasiga ta'sir ko'rsatgan.

Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda O'zbekistonning CIP indeksi dinamikasida jahon reyting ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy siljish kuzatilgan. Xususan, mamlakatimiz 2014-yilda 98-o'rinni egallagan bo'lsa, 2023-yilga kelib 83-o'ringa ko'tarilgan. Bu o'tgan o'n yil davomida 15 pog'onaga yaxshilanishni anglatadi.

Shu bilan birga, milliy sanoat raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha mavjud salohiyatni inobatga olgan holda, mamlakatimizning jahon reytingidagi o'rni mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilayotganini anglatmaydi. Jahon miqyosida raqobatning yuqori darajada ekanligini hisobga olganda, O'zbekistonning pozitsiyasini yanada mustahkamlash innovatsion faoliyatni kengaytirish, sanoatning texnologik intensivligini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini ko'paytirish bilan bevosita bog'liqdir.

Umuman olganda, milliy iqtisodiyotning xalqaro bozorlarda uzoq muddatli va barqaror raqobat ustunligini ta'minlash sanoatni texnologik transformatsiyalash, eksport tarkibini diversifikatsiyalash, malakali mehnat resurslarini tayyorlash orqali inson kapitali sifatini oshirish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda global qo'shimcha qiymat zanjirlariga chuqurroq integratsiyalashuvni ta'minlash kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro raqobatbardoshlikni baholash milliy ishlab chiqarish va eksport salohiyati hamda tarkibiy o'zgarishlar jarayonining borishi to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu ma'lumotlar

⁵ Muallif tomonidan ishlangan. Manba: <https://stat.unido.org/data/download?dataset=cip>.



asosida milliy sanoat siyosati va davlatning strategik dasturlarini yanada samarali shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Institutsional samaradorlikni oshirish. Davlat boshqaruvi tizimida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, institutsional tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirish hamda biznes muhitini yanada takomillashtirish zarur.

2. Inson kapitalini rivojlantirish. Ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, ta'lim mazmunini innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlariga muvofiq ravishda yangilash, oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot, texnik-muhandislik va raqamli texnologiyalar yo'nalishlarini ustuvor rivojlantirish hamda ilmiy-pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

3. Investitsion faollikni rag'batlantirish. Iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish zarur.

4. Moddiy infratuzilmani modernizatsiya qilish. Transport-logistika, energetika va raqamli infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mumkin.

5. Eksportni diversifikatsiya qilish. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish hamda savdo to'siqlarini bosqichma-bosqich qisqartirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

6. Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini oshirish, universitet-sanoat hamkorligini rivojlantirish hamda intellektual mulk huquqlarini samarali himoya qilish innovatsiyalarning iqtisodiyotga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlaydi.

Umuman olganda, milliy sanoatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Sanoatni texnologik transformatsiyalash, eksport tarkibini diversifikatsiyalash, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion muhitni mustahkamlash orqali O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi pozitsiyasini yanada mustahkamlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2025). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26-dekabr 2025-yil. <https://president.uz>
2. Lall, S. (2003). Industrial success and failure in a globalizing world. QEH Working Paper Series, No. 102, 1–26.
3. Zhao, Z., & Zhang, K. H. (2007). China's industrial competitiveness in the world. Chinese Economy, 40(6), 6–23.
4. Değer, Ç., Türkcan, B., & Kumral, N. (2009). Competitive industrial performance index and its drivers: A comparative analysis on Turkey and selected countries. Ege Akademik Bakış, 9(4), 1375–1398.
5. Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, A. A. (2022). Sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Farg'ona: Al-Ferganus.
6. Abdumovminov, A. A. (2022). Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini baholash usullari. TSTU Conference Proceedings, 3(1), 186–194.
7. UNIDO. (2017). Competitive Industrial Performance Report 2016. Vienna: United Nations Industrial Development Organization.
8. UNIDO. (2022). Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. Vienna: UNIDO.
9. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
10. Porter, M. E., & Kramer, M. R. (2011). Creating shared value. Harvard Business Review, 89(1–2), 62–77.
11. World Bank. (2020). World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains. Washington, DC: World Bank.
12. OECD. (2021). Global Value Chains: Efficiency and Risks in the Context of COVID-19. Paris: OECD Publishing.
13. Hausmann, R., Hwang, J., & Rodrik, D. (2007). What you export matters. Journal of Economic Growth, 12(1), 1–25.
14. Rodrik, D. (2016). Premature deindustrialization. Journal of Economic Growth, 21(1), 1–33.
15. World Economic Forum. (2023). The Global Competitiveness Report 2023. Geneva: WEF.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>